



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI  
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGI  
DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI MARKAZI  
FARG'ONA VILOYATI FILIALI**

Manzil: 105150, Farfona shaҳar, Sakkokiy kўchasi, 39/41, Tel: 73-244-68-45

**DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI  
XULOSASI**

**TARTIB RAQAM 01-02/12-431**

**HUJJAT TURI** Atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi ariza loyihasi

**Davlat ekologik ekspertizasi buyurtmachisi: RUSTAMOV BAXTIYOR AKBAROVICHga berildi.**

**STIR: 32008756970016**

**Obyekt nomi:** Toshloq tumani Qo'rg'oncha, Piyozhchilik mahalla fuqarolar yig'ini Faxr ko'chasi 83-uy xududida joylashgan yer maydonida nodavlat mакtabgacha ta'lif muassasasi bino-inshootlari qurilishi uchun loyiha oldi bosqichida "Atrof-muhitga ta'sir to'g'risida ariza" (ATT) loyixasi.

**Loyihalarini ishlab chiquvchi nomi: "FARG'ONA QURILISH EKSPERT"**

**MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT**

**STIR: 303394458**

**Davlat ekologik ekspertizasi mas'ul eksperti: XOLMATOV FARXODJON ABDULLAYEVICH**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovaga muvofiq, ushbu davlat ekologik ekspertizasi obyekti **atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning IV toifa toifasining 7-bandiga mansub**.

O'tkazilgan davlat ekologik ekspertizasi natijasi: **Ijobiy xulosa**

Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi:

**Berilgan sana: 17.05.2024**

**Amal qilish muddati: 17.05.2027**

*Ekologik ekspertiza obyektining ekologik talablarga muvofiqligi, joylashuv nuqtalari koordinatalari, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari, bajarilishi shart bo'lgan talablar va boshqalar to'g'risida ilovada keltirilgan O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Davlat ekologik ekspertiza markazi va filiallarining ekspert xulosasi ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasining ajralmas qismi hamda unda belgilangan talablar bajarilishi shart hisoblanadi.*

*Izoh: Buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rioya etilmaganda, davlat ekologik ekspertizasi xulosasi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinadi.*

Direktor



M.Babaxodjayev

## **Davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo‘yicha Ekspert xulosasi talablari**

1. Ushbu “Atrof muhitga ta’siri to‘g‘risida ariza” (ATT) loyixasida ko‘zda tutilmagan faoliyat turlari bilan shug‘ullanish, ya’ni: yangi qurilish, qayta tiklash, kengaytirish, katta xajmli issitish qozonlari o‘rnatish, yoqilg‘i turini o‘zgartirish, tandirlar qurilsa, faoliyat turini o‘zgartirish hamda boshqa qurilish ishlarini amalga oshirilishi ko‘zlangan taqdirda “ATT” loyixasi ishlab chiqilib “Davlat ekologik ekspertizasi markazi” DM Farg‘ona viloyati filialiga taqdim qilinishi shart.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-dekabrdagi 981-sonli qaroriga asosan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi suv obyektlarining svuni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqidagi” qarorga asosan qurilishi shart.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 oktyabrdagi “Maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish soxasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 787-sonli qaroriga asosan chiqindi qutilarini o‘rnatish majburiyligi belgilangan;

- Chiqindi to‘plash shoxobchalari turar joy binolarining derazalari, bolalar muassasalari uchastkalarining chegarasi, dam olish joylaridan 20 metrdan kam bo‘limgan va 100 metrdan uzoq bo‘limgan masofada joylashtiriladi.

- Chiqindi to‘plash shaxobchasining xududi o‘tish yo‘liga tutash bo‘lishi, lekin maxsus avtotransport vositasining kirishiga xalaqit bermasligi lozim. Alovida joylashgan maydonchada (o‘tish yo‘lidan uzoqda) maxsus avtotransport vositasining konteynerlarni bo‘shatish uchun qulay kirish imkoniyati va burilish maydonchasi qurish ko‘zda tutilgan.

- Chiqindi to‘plash shoxobchalarida alovida to‘plashni tashkillashtirish maqsadida majburiy tarzda quyidagilar uchun to‘rt turdagи konteynerlar o‘rnataladi:

\* qayta ishlanadigan qattiq maishiy chiqindilar (ikkilamchi moddiy resurslar aralashmasidan iborat chiqindilar) uchun — ko‘k rang;

\* organik qattiq maishiy chiqindilar (oziq-ovqat va boshqa biologik chiriydigan chiqindilar) uchun — jigarrang;

\* qayta ishlanmaydigan qattiq maishiy chiqindilar (boshqa maishiy chiqindilar) uchun — kulrang;

\* xavfli maishiy chiqindilar uchun — to‘q sariq rang;

Qattiq maishiy chiqindilarni to‘liq saralab yig‘ish uchun ajratib turuvchi rangli va (yoki) maxsus belgilar hamda yozuvlar bilan markalangan qo‘srimcha konteynerlar (plastmassa chiqindilari – sariq, shisha va shisha siniqlari – oq, qog‘oz chiqindilari – xavo rang) o‘rnatilishi mumkin.

Bunda, qayta ishlanadigan va xavfli maishiy chiqindilar keyinchalik chiqindilarni utilizatsiya qilish va qayta ishslash bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslarga shartnomada asosida sotish va (yoki) berish uchun saralashga yuboriladi..

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 28-yanvar kungi “Qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” №40-sonli qarorga asosan qurilish chiqindilarini to‘plash, saqlash, tashish, utilizasiya qilish, qayta ishslash va joylashtirishga doir asosiy talablarni bajarishi shart.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevral kungi “2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-57-sonli qaroriga asosan 2023 yil 1 may kunidan foydalanishga topshiriladigan ko‘p qavatli uylar tomlari bo‘sh qismining kamida 50 foizida quyosh panellarini o‘rnatish talabi joriy qilinganligi sababli quyosh panellari o‘rnatilishi zarur.

6. Qurilish jarayonida xududda mavjud bo‘lgan (er osti va yer usti) muxandislik inshoot (yo‘l, aloqa, suv, soy, irrigasiya tarmoqlari, gaz tarmoqlari, elektr tarmoqlari va boshqa)larni ximoya xududini saqlash buyurtmachiga yuklatiladi.

7. Maktabgacha ta’lim muassasasi qurilish va qurib bitkazilgandan so‘ng foydalanish davrida obyekt xududida mavjud bo‘lgan manzarali va ko‘p yillik daraxtlar bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof muhitni muxofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlangan haqida”gi PF-5863-sonli farmoyishiga asosan daraxtlarni kesish taqiqlanadi.

8. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish maqsadida obyektni isitishda, yorug‘ligini ta’minlashda yoki issiq suv ta’midotida quyosh batareyalarida ishlaydigan zamonaviy suv isitish qurilmalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

“Ekologik ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonunining 9-moddasi, 3-bandiga muvofiq ekologik ekspertizasi buyurtmachisi yuqorida ko‘rsatilgan ekologik talablari bajarishi shart.



Ma'sul ekspert: XOLMATOV FARXODJON ABDULLAYEVICH

## Obyekt haqida qisqacha ma'lumot

“Davlat ekologik ekspertizasi markazi” DM Farg‘ona viloyati filialiga taqdim etilgan ushbu obyekt bo‘yicha tayyorlangan “Atrof muhitga ta’sir to‘g‘risida ariza” (ATTA) loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentyabrdagi 541-sonli “Atrof muhitga ta’sirini baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori 1-ilovasiga asosan atrof muhitga ta’sir ko‘rsatishi yuzasidan 4-toifa 7-bandiga mansub (mahalliy ta’sir) faoliyat turiga kiradi.

“Atrof muhitga ta’sir to‘g‘risida ariza” (ATTA) loyihasini ishlab chiqishdan maqsad, mo‘jallanayotgan faoliyat turini joylashtirishni ekologik nuqtai nazardan asoslash, atrof muhit xolatini taxlil qilish, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ekologik talab va tadbirlarni aniqlashdan iborat.

Obyekt qurilishi uchun asos:

Toshloq tumani Qurilish va uy joy kommunal xo‘jaligi bo‘limining 2024-yil 6-mart kungi №1730227-160735-sonli Ruxsatnomasi, joylashuv chizmasi va koordinatlari mavjud.

Ob’ekt ekologik ekspertizasiga kiritilgunga qadar qurilish ishlari yakunlanganligini va qurilish maydonida ko‘p yillik manzarali daraxtlar mavjud emasligini tasvirlovchi fotolavxalar ilova qilingan.

Obyekt Toshloq tumani Qo‘rg‘oncha, Piyozhchilik mahalla fuqarolar yig‘ini Faxr ko‘chasi 83-uy xududida joylashgan bo‘lib, umumiyligi  $998,0\text{ m}^2$  yer maydonini egallaydi.

Obyekt yer maydoni joylashuviga ko‘ra: shimol, janub va g‘arbdan – aholi xonardonlari, sharqdan – Marg‘ilon – Qoratepa avtomobil yo‘li bilan chegaralangan.

Geografik koordinatlari:

1. 40.29'53.03" ShK	71.44'10.27"ShU
2. 40.29'53.06" ShK	71.44'11.36" ShU
3. 40.29'51.86" ShK	71.44'11.73" ShU
4. 40.29'51.75" ShK	71.44'10.80" ShU

Axoli yashash manzillari qurilayotgan obyektdan 20 metr uzoqlikda shimol tomonda joylashgan.

Respublikamizda mavjud gigienik tadqiqotlar va kuzatuvlarga asosan ishlab chiqarilgan SanPiN № 0350-17ga asosan sanitar ximoya zonasi belgilanmagan. Obyektning umumiyligi yer maydoni  $998,0\text{ m}^2$  ni tashkil etadi. Shundan bino-inshoatlar

egallagan maydon - 630,0 m<sup>2</sup> ni, qattiq to'shamali maydon (yo'l va yo'laklar) - 110,0 m<sup>2</sup> ni, ko'kalamzorlashtirilgan maydon - 258,0 m<sup>2</sup> ni tashkil etadi.

Yuqoridagilar ishga tushirilganidan keyin 10 kishi, bir kunda 8 soat, bir yilda 305 kun ishlashi xamda 120 nafar bolalarga maktabgacha ta'lim (3 yoshdan 6 yoshgacha) ta'lim berishlari belgilangan.

Obyektga o'rnatiladigan uskunalar – Maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatida zarur bo'lgan jixozlar va istish uchun elektr tokida ishlovchi maishiy uskunalar o'rnatiladi

Ishlab chikarish texnologiyasi jarayoni tavsifi - tuman axolisining bolalariga maktabgacha ta'lim berish ishlari olib boriladi.

Obyektning suvdan foydalanish manbalari: Ichimlik extiyojlari va xo'jalik maishiy extiyojlari uchun suvni "Farg'ona suv ta'minoti" MChJning texnik shartiga asosan Toshloq tumani Qo'rg'oncha, Piyozchilik mahalla fuqarolar yig'ini Faxr ko'chasi xududida mavjud ichimlik suv tarmog'idan loyiha asosida ulash ko'zda tutilgan. Ko'kalamzor maydonni sug'orish uchun obyekt yaqinidagi maxalliy ariqdan olib foydalanish ko'zda tutilgan. Ishchilar va tarbiyalanuvchi bolalarni ichimlik va boshqa maishiy extiyojlari uchun jami yilda 1149,0 m<sup>3</sup> miqdorda suv sarflanadi.

Foydalanishdan xosil bo'lgan oqava suvlar (yillik 689,64 m<sup>3</sup>) obyekt xududidagi beton xandakka yig'ilib, tuman sanitar servis korxonalari bilan shartnomaga asosida DSENOM belgilagan xududga tashib ketiladi.

Obyektning issiqlik ta'minoti – binolar maishiy qozonlar va maishiy elektr istkichlar orqali isitiladi.

Ifloslantiruvchi moddalarni chiqarib tashlash tarkibi va miqdori. Obyekt ishga tushganidan so'ng, xudud atmosfera xavosiga bolalar bog'chasiga kelgan avtomobillardan mahalliy axamiyatga ega bo'lgan is gazlar tashlanadi.

Obyekt ish faoliyati davrida xududni tozalashdan, ishchi va xizmatchilarni ish jarayonidan yiliga 10,77 tn qattiq maishiy (suprindi axlat, polietilen qoldiqlar, qog'oz va boshqa) chiqindilar, kul chiqindisi, oziq-ovqat chiqindisi xosil bo'lishi kutiladi. Xosil bo'lgan maishiy chiqindilar toplash maydonchasida idishlarga yig'ilib, tumandagi tegishli xususiy sanitar xizmat ko'rsatish korxonalari tomonidan shartnomaga asosida belgilangan chiqindixonaga tashib ketiladi. Oziq-ovqat chiqindisi uy xayvonlariga ozuqa sifatida olib ketiladi.

Bundan tashqari maktabgacha ta'lim muassasasi xovli xududida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 oktyabrdagi 787-sonli qaroriga asosan obyektning xar 700 m<sup>2</sup> maydonida 1 ta (jami 25 ta), asosiy alleyalarda esa bir-biridan 10 metrdan uzoq bo'Imagan masofada 1 tadan (jami 8 ta), kirish-chiqish joyiga 1 tadan (jami 4 ta) chiqindi qutilarini o'rnatiladi.

Loyixada qurilish ishlari olib boriladigan yer maydonlarida o'sayotgan manzarali ko'p yillik daraxtlar mavjud emasligi ko'rsatib o'tilgan.

Obyektning "Atrof muhitga ta'sir to'g'risida ariza" (ATTA) loyihasi, O'zbekiston Respublikasi "Davlat ekologik ekspertiza to'g'risidagi Nizom", qonun hamda qonunosti me'yoriy xujjatlariga asosan ishlab chiqilgan.

Obyektni faoliyati davomida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha quyidagi ekologik chora - tadbirlar belgilansin:

- Maktabgacha ta'lim muassasasi qurilish ishlarini boshlashdan oldin, boshqa mutasaddi idora va tashkilotlar (aholi roziligi olinsin) bilan kelishilsin va tegishli ruxsatnomalar olinsin;
- Oqava suvlarni ochiq suv xavzasi va relefga tashlanishiga yo'l qo'yilmasin va kelgusida kanalizatsiya tarmog'iga ularishi ta'minlansin;
- Qattiq-maishiy va boshqa chiqindilarni vaqtincha saqlash uchun xududga jixozlangan chiqindi toplash maydonchasi tashkil etilsin va temir sig'imlar o'rnatilsin;
- Bino va inshootlarni va manbaalarni joylashtirishda SanPIN qoidalariga amal qilinsin;
- Qurilish ishlari jarayonida kavlab olingen tuproq yoki shag'alni noqonuniy ravishda boshqa joylarga tashib (sotishga) ketilishiga yo'l qo'yilmasin, shu xududni ko'kalamzorlashtirishda ishlatilsin;
- Maktabgacha ta'lim muassasasi qurilish ishlarini amalga oshirish davrida xuddagi flora va faunaga zarar yetkazilmasin, noqonuniy kesilishiga yo'l qo'yilmasin;
- Obyektni xudduda joylashtirish (qurilish) ishlari Shaxarsozlik norma va qoidalari (ShNQ) asosida xamda "Uzshaxarsozlik LITI" bilan kelishilgan xolda amalga oshirilsin;
- O'zbekiston Respublikasi "Chiqindilar to'g'risida"gi qonun talablariga muvofiq xudduda xosil bo'lgan maishiy-qattiq va boshqa chiqindilarni turlariga ko'ra saralansin va qayta ishslash mumkin bo'lgan chiqindilarni ikkilamchi xom-ashyo sifatida tegishli korxonalarga topshirilsin. Qayta ishlatilishi mumkin bo'limgan chiqindilarni shahardagi sanitar korxonalar bilan shartnoma tuzib, belgilangan chiqindixonaga o'z vaqtida tashib ketilishi ta'minlansin;
- Bino xududi va atroflarini obodonlashtirilsin, ko'kalamzorlashtirilsin, manzarali daraxt ko'chatlari ekilsin va doimo tozaligi saqlansin.

Ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasida belgilangan ekologik talablarni bajarish nazorati Farg'onan viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasining Toshloq tuman inspeksiyasiga yuklatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida” gi qonunning 22-moddasiga binoan ushbu obyektning ekologik talablarga muvofiqligi xususida “Davlat ekologik ekspertizasi markazi” DM Farg‘ona viloyati filialining bergen xulosasi, berilgan kundan e’tiboran 3 yil mobaynida yuridik kuchga ega.

Xulosada ko‘rsatilgan shartlar bajarilmagan va yuqorida ko‘rsatilgan faoliyatdan tashqari boshqa qo‘sishimcha qurilish va faoliyat turlari tashkil etilgan taqdirda ushbu ekologik ekspertiza xulosasi o‘z kuchini yo‘qotadi.



Ma’sul ekspert: XOLMATOV FARXODJON ABDULLAYEVICH